



HYSSOPYS OFFICINALISNING MORFO-BIOLOGIK

KO'RSATKICHLARI

Faxriddinova D.Q

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Botanika instituti huzuridagi Toshkent

Botanika bog'i "Dorivor va manzarali

o't-o'simliklar" laboratoriyasi kichik

ilmiy xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6622454>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

Botanika bog'i, introduksiya, Hyssopys officinalis L

ABSTRACT

Maqolada Toshkent Botanika bog'ida mavjud bo'lgan Hyssopys officinalisning morfo-biologik ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Ma'lumki dunyo miqiyosida farmaseftika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50%i dorivor o'simliklar hom ashyosidan tayyorlanmoqda. Mutloq ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham farmaseftika sanoatini jadallik bilan rivojlantirish bunday korxonalarning dorivor o'simliklar homashyosiga bo'lgan talabni keskin oshishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2911-son " Respublika farmaseftika sanoatini jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida mazkur sohadagi muammolar yechimini xal qilish aks etgan. [1] 2020-2024 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar davlat o'rmon xo'jaliklari bo'yicha dorivor o'simliklar yetishtirish va tayyorlash prognoz ko'rsatkichlari inobatga olinib, yer maydonlari topshirildi. Botanika bog'i

hududida o'sayotgan *Hyssopus officinalis* L.Lamiaceae oilasiga mansub ko'p yillik yarim buta o'simlik.[2] Toshkent botanika bog'i sharoitida introduksiya qilingan. Bu turkumning yagona *Hyssopus zeravshanucus* Toshkent viloyatining tog'li hududlarida kichik-kichik maydonlarda tabiiy holda uchraydi. O'simlik ziravor sifatida qadimdan mahalliy xalq tomonidan ishlatilib kelingan.[4].Uning vatani O'rta yer dengizi sohillari hisoblanadi. *Hyssopys officinalis* Janubiy Yevropa, Boltiqbo'yi davlatlari, Qrimda, Kavkazda, Markaziy Osiyoda o'sadi. *Hyssopys officinalis* poyasining uzunligi 20-80 smga yetadigan yarim buta o'simlik. Ildizi yog'ochlangan o'qildiz, ko'p poyali, to'rt qirrali, poyaning asosi yog'ochlangan kam tuklangan silliq. Barglari poyada o'troq joylashgan [4].To'pgullari soxta shingilsimon, to'pgulining uzunligi 12-20 sm ga yetadi. Bir o'simlikdagi poyalar soni 50 tagacha bo'ladi.U iyun oyining oxiridan avgustgacha



gullaydi. Uzunligi 15 sm, boshqo shaklidagi gulqo'rg'onli, binafsha rangga bo'yalgan gullari bo'ladi. [3]. Mevasi to'rtburchakli to'q jigarrang yong'oq mevadir. *Hyssopys officinalis* efir moylariga juda boy asal shirali o'simlik hisoblanadi. *Hyssopys officinalis* tuproqqa ta'labchan emas, u botqoq va sho'rlangan tuproqlardan boshqa hamma tuproqlarda o'sadi. Yorug'lik nurlariga ta'labchan, qurg'oqchilik va sovuqqa chidamli. *Hyssopys officinalis* urug'idan ko'chatidan ko'paytiriladi. [4]. Erta bahorda *Hyssopys officinalis* urug'lari qum bilan aralashtiriladi, ekish chuqurligi 2 smgacha, qator orasidagi masofa 70 sm qilib ekiladi. *Hyssopys officinalis* dorivor maqsadlarda, landshaft dizayni sifatida manzarali o'simlik sifatida toshlar orasiga ekish mumkin. *Hyssopys officinalis* guli asal shiraga boy o'simlik bo'lganligi uchun ham ekib ko'paytiriladi. Gullash davri iyun noyabr oylarida sodir bo'ladi va ko'p miqdorda nektar hosil qiladi. [3] A.V. Abramchuk (2003) dorivor issop

***Hyssopys officinalis* urug'larining laboratoriya sharoitlaridagi unuvchanligi (% hisobida uch takrorlikdan o'rtacha ko'rsatkichlar keltirilgan)**

1-jadval

Harorat	Saqlanish muddati oy				
	6	8	12	16	24
22-24	65	75	85	70	60
24-26	40	45	55	40	35
28-30	10	30	35	25	15

Tabiatda ko'pchilik o'simliklarning urug'larining unuvchanligi uchun optimal harorat 22+24 S ni tashkil etib, dorivor issop urug'larining laboratoriya sharoitida unuvchanligini aniqlashda haroratning bu darajasi urug'larni unib chiqishini

o'stirish texnologiyasini o'rganib chiqqan. Unga ko'ra esa dorivor issop urug'ini kichik maydonlarda o'stirib olib keyinchalik doimiy joyga ko'chirib olinganda yaxshi o'sib rivojlanishi aniqlangan. ***Hyssopys officinalis*** urug'lari uchburchaksimon, deyarli qora ba'zan qo'ng'ir rangli mayda qattiq bo'lib kattaligi 2-4 mm, ni tashkil etadi. 1000 dona urug' vazni 0,8-1,1 g ga teng. 2019 yildan issop urug'lari laboratoriya sharoitida unib chiqishi kuzatildi, dorivor issop urug'larining unib chiqishi uchun qulay harorat 22+24 S bo'lib, haroratning bu darajasida 7-10 kungacha unuvchanlik 60-75% ni tashkil etdi. 28-30 S haroratda o'simlik urug'larining unib chiqish darajasi past 6 oy saqlangan urug'larda 10% ni tashkil etdi. 22+24 S da dorivor issop urug'larining unuvchanligi eng yuqori bo'lib 6 oy saqlangan urug'larning unuvchanligi 65% 8 oy saqlanganlari 75% 12 oy saqlanganlari 85%, 16 oy saqlanganlari 70% va 24 oy saqlanganlari 60% ni tashkil etdi. (1 jadval)

isbotlaydi. Laboratoriya sharoitida 22+24 S haroratda bir saqlangan urug'ning unuvchanligi yuqori bo'lib, 85% ni, eng past unuvchanlik 28+30 S haroratda 6 oy saqlangan urug'larda kuzatilib 10% ni tashkil etdi.

***Hyssopys officinalis* ko'p yillik ko'chatlarining morfologik ko'rsatkichlari**

Oylar	Novda uzunligi (sm)		Barg soni	
Mart	8	10	6	8



Aprel	14	16	38	40
May	25	28	50	59
Iyun	30	35	60	67
Iyul	35	40	69	78
Avgust	43	48	80	83
Sentabr	52	55	85	90

Ko'p yillik ko'chatlarining vegetatsiyasi mart oyining o'rtalaridan boshlandi. Mart oyida yangi hosil bo'lgan novdalarning uzunligi 8-10 sm va novdadagi yirik burglar soni o'rtacha 6-8 ta, novdada mayda barglar ham mavjud bo'lib, barg qo'ltig'ida hosil bo'layotgani kuzatildi. Aprel oyida jadal o'sib rivojlanib oy ohirida yangi hosil bo'lgan barglarning soni 12-15

tagacha bo'lib, ko'plab mayda bargchalar hosil bo'lishi aniqlandi. Dorivor issopning may oyida o'sish va rivojlanishini kuzatib borganda o'simlikning jadal o'sishi va generative fazalarining boshlanishi kuzatildi. May oyida issop o'simligi g'unchalashga o'tdi. Oy ohiriga kelib o'simliklar gullay boshladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2911-son "Respublikada farmaseftika sanoatini jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Lex.uz 2017-yil 20 aprel.
2. Abdurahmonov A.A., Valixojayev C. O'simliklar introduksiyasi. - Toshkent, 1996. - b. 40.
3. Шибко А.Н. Биоморфологические особенности семян *Hyssopus officinalis*. При возделывании в условиях предгорного Крыма. Ученые записки таврического национального университета. Серия "Биология химия". Том 24 (63) №4. 2011. С. 371-377.
4. Калиниченко Л.В. Агробиологические особенности иссопа лекарственного *Hyssopus officinalis* и пути повышения продуктивности культуры в условиях нечерноземной зоны: диссертация кандидата сельскохозяйственных наук: 06.01.06. / Москва, 2013. - 145 с.: ил. Ргб од 61 14-6/247.